

MUSTAQILLIK YILLARIDAGI AGRAR ISLOHOTLARNING KEYINGI ISTIQBOLLARI

Mamasoliyeva Rayhonoy Abdushukur qizi

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303-guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning mustaqillik davridagi agrar sohadagi islohotlari, xorijiy investitsiyalarning xalq xo'jaligiga jalb qilinishi, qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonning yerga egalik hissini qayta tiklash, qishloq xo'jaligiga oid prezident farmon, farmoyish va qonunlari aks etgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, Qishloq xo'jaligi kooperativi, iqtisodiy islohotlar, xorijiy investitsiyalar, akkredatsiya, davlatga import qilinishi, integratsiyalashuv, xorijiy mamlakat vakolatxonalari, davlatning investitsiya faoliyati.

Abstract: This article reflects the reforms in the agrarian sector of Uzbekistan during the period of independence, the attraction of foreign investments to the national economy, the development of market relations in the countryside, the restoration of the peasant's sense of land ownership, the presidential decree, orders and laws related to agriculture.

Key words: agriculture, agricultural cooperative, economic reforms, foreign investments, accreditation, import into the state, integration, representative offices of foreign countries, investment activities of the state.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashishi va ochiq iqtisodiyot qurish yo'lida jadal rivojlanib, 2015-yilga kelib, dunyoning 143 dan ortiq davlatlari tan oldi, jahonning 120 dan ortiq mamalakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi, Toshkentda 40 dan ortiq mamlakatlarning elchixonalari ochildi, respublikada 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari akkredatsiya qilindi. Hukumatlararo 24 ta va nohukumat 14 ta tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi. Dunyoning 30 ortiq davlatlari bilan O'zbekiston elchixonalari va konsullari faoliyat olib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular o'z iqtisodiyotini yuksaltirish jarayonida, albatta, u yoki bu turdagi xorijiy investitsiyalardan foydalanishgan. Bunday tajriba O'zbekiston Respublikasiga ham xos xususiyat hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar xalq xo'jaligi tarmoqlari iqtisodiyotida jalb etilgan taqdirda bu tarmoqlar rivojlanadi, ya'ni aholi bandligi o'sadi, tovar xizmatlarining asosiy o'lchov mezonini bo'lgan

sifat yaxshilanadi, ichki iste'mol bozorlari mustahkamlanadi, davlatga import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik iqtisodiy yaqinlashuv, turli sohalardagi muzokaralar yangi bosqichlarga erishiladi.

Hozirgi sharoitda xorijiy investitsiyalarsiz iqtisodiyotni rivojlantirib bo'lmashligini deyarli har bir ziyoli mutaxassis va ish yurituvchi sub'yekt anglab yetadi. Shuning uchun ham bu yo'nalishga alohida e'tibor bilan qarash va uni rivojlantirishga ahamiyat berilishi zarur. Mamlakat iqtisodiyotidagi investitsiya faoliyatining rivojlanish darajasi shu mamlakatda olib borilalayotgan investitsiya siyosati va uning natijasi qanday samara berayotganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, investitsiya siyosatining maqsadi mavjud investitsiya faoliyatining rivojlanish istiqboliga qaratilishi tabiiydir. Bu maqsad o'zida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda tartibga solishdan iborat bo'lgan vazifasini ham mujassam etadi. Bugungi kunning talabi ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvuni ta'minlashdir. Mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarning faoliyat yuritishi uchun zarur qonunchilik baza yaratilgan. 1991-yil O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi va "Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 1998-yil 30-aprelda mamlakatimiz parlamenti qabul qilgan "Xorijiy investorlar to'g'risida"gi va "Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan, yangi tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar 10 yil mobaynida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish borasida"gi farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012-yilning 2-choragidan boshlab 20 turdagi iqtisodiyot tarmog'i bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga ham tatbiq etilib, foyda, qo'shimcha qiymat, mol-mulk va boshqa soliq hamda majburiy to'lovlar to'lashdan ozod qilingan.

Xuddi shu davrda O'zbekiston aholisining 64 foizdan ko'prog'i qishloqda yashashi, ya'ni ichki mahsulotning 24 foizdan ko'prog'i agrar sektorga to'g'ri kelishi va qishloqda istiqomat qilganlarning 37 foizga yaqini qishloq xo'jaligi bilan band edi. Qishloq xo'jaligida islohatlarni amalga oshirishda eng ustuvor masala sifatida yerga mulkchilik masalasi hal qilindi. O'zbekiston Respublikasida

sug'oriladigan yerlarning kamligini hisobga olib, yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligini huquqiy hujjatlarda qayd etildi. Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlab qabul qilingan meyoriy hujjatlarda, xususan, "Yer to'g'risida"gi (20 iyun 1990 yil) va boshqa qonunlarda va Prezident farmonlarida qishloq xo'jaligidagi tub islohatlarni huquqiy va nazariy asoslari yaratildi. Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonning yerga egalik hissini qayta tiklash, yerni sotish-olishga yo'l qo'ymasdan, balki uni uzoq muddatlarga (50 yilgacha) meros qilish huquqi bilan vaqtincha yoki umrbod foydalanishga berish masalalari hal qilindi. 1992-yildan boshlab atigi uch yil ichida mavjud 1137 davlat xo'jaligidan 1066 mulkchilikning aksiyadorlik, jamoa yoki ijaradagi xo'jalikka aylantirildi. 1516 qoramolchilik fermasi mehnat jamoalarining mulki qilib berildi.

Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisod vujudga keldi. 1997-yili shaxsiy tomorqa xo'jaligi 3 mln. Gektarni tashkil qildi. Tomorqa xo'jaliging ekin maydoni 1989-yili 257 ming gektar bo'lsa, 1997-yil 599,7 ming gektarga ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining X sessiyasi (dekabr, 1997 yil) agrar va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish yuzasidan qator qonunlar qabul qildi.

Agrar sohada mulkiy munosabatlar qonuniy asoslarining yaratilganligi bu jarayonning kafolatli garoviga aylandi. Xususan, "Er to'g'risida" (1990), "O'zbekistonda tadbirkorlik to'g'risida" (1991), "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" (1991), "Ijara to'g'risida" (1991), "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" (1992), "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida" (1992), "Er solig'i to'g'risida" (1993), "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qabul qilindi.

Qishloq xo'jaligida mavjud muammolar va ularning yechimlarini huquqiy asoslarini yaratish, iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, fermer, klaster hamda kooperatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasiga har doimgidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Xususan, 2020-yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 5 ta Qonuni, Prezidentning 12 ta Farmoni va 30 dan ortiq Qarori hamda hukumatning ko'plab Qarorlari ayni shu yo'nalishga qaratilganligi ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bu borada alohida ta'kidlashimiz lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonini haqiqatan ham inqilobiy hujjat deb atash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 10-dekabr 2017-yil.
2. Sima E. (2012). Ecological Agriculture and Changing Perception in the Case of Quantity and Quality. The Information and Economic Reference Material Center. Bucharest.
3. “Qishloq xo‘jaligida aholi bandligini oshirish va yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2023 yil 23 fevral, PQ-69-son.
4. Аманов А.М. Определение налоговой задолженности // Вестник современной науки. Научно-теоретический журнал. No4. 2016. Часть 1. Стр. 77-7
5. Sh.Mamajonov.”QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLAB CHIQRISHNI KLASSTERLASHNI TAKOMILLASHTIRISH”
6. Mirjonovna, Y. B. (2021). Cho‘l shamollarining Buxoro shahar tarixida tutgan o‘rni. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
7. Qishloq xo‘jaligi akademiyasi huzuridagi Bozor islohotlari instituti ma’lumotlari (1990-1995 yillar)